



UO'T: 581.1:631.8

## BUG'DOYNING DON SIFATI

Atoev Baxtiyor Qo'ldoshivech 

Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti,  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim  
e-mail: [baxtiyor.atoev@mail.ru](mailto:baxtiyor.atoev@mail.ru)

**Annotatsiya.** Bug'doyda donning sifati, birinchi navbatda tarkibidagi namlik, oqsil miqdoriga bog'liq. Tuproq-iqlim sharoitiga, navning xususiyatlariga, berilgan o'g'itlar miqdori va nisbatiga qarab don tarkibidagi oqsil, uning yuvilganda qoladigan kleykovina miqdorlari o'zgaradi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi tuproqlarda va sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarida ham 10 tonna/ga chiqindi, qoldiqlar va (sof holda)  $N_{154}P_{112}K_{35}$  kg/ga o'g'it me'yorlarida donning sifat belgilari yuqori bo'lishi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir o'tloqi va o'tloqi, kuzgi bug'doyning "Vassa" navi urug'i, o'g'it me'yorlari, bug'doy don sifati.

**Аннотация.** Качества пшеницы в первый очерёд зависим от влажности и содержание белков. В зависимости почвенно-климатического условий, свойств сорта, содержание и соотношение удобрений содержание белки в зернах и остоточный клейковина после промывки измениться. Потому что, сорта питается не одинокова, они требуют питательных элементов в разных сроках и нормах. Результаты опытов показывает, орошаемых серо-бурых луговых и орошаемых луговых почвах увеличилось при внесении 10 тонна гектар отходов и остатков сельского хозяйства, а также минеральных удобрений при норме  $N_{154}P_{112}K_{35}$  кг/га были хорошие признаки качества зерно пшениц.

**Ключевые слова:** орошаемый бурый луговой и лугов, сорт озимой пшеницы «Васса», нормы удобрений, качества зерно пшеница.

**Abstract.** The quality of grains of wheat firstly related to moisture and content of proteins. According to soil-climatic conditions, characteristics of varieties, content and ratio of fertilizers proteins of grains and remained gluten after washing changes. Because varieties feed not similarly, they require nutrient elements in different date and norm. Experiments show that when we applied 10 ton/ha manure and  $N_{154}P_{112}K_{35}$  kg/ha (in pure calculation), the increased in irrigated gray-meadow and irrigated meadow soils.



## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

**Key words:** irrigated brown meadow and meadows, winter wheat variety "Vassa", fertilization rates, the grain quality.

### KIRISH.

Donning sifati, uning o'zgarishi ko'proq: iqlim, tuproq xossalari, urug'lik, qo'llaniladigan agrotexnika, agrotadbirlarga bog'liq. Bu omillar ta'sirida shakllangan don, un, un maxsulotlari tarkibi o'zgaradi. Bug'doy donning sifatiga ta'sir etuvchi kuchli omillardan biri –tuproqdagi oziqa elementlardir. Bundan tashqari tuproq tipi, uning xossalari ham ta'sir ko'rsatadi. Donning sifat belgisiga esa o'g'it, tuproq-iqlim sharoiti, agrotexnika, don tozaligi, ekiladigan urug'ning unuvchanligi, navning biologik, fizik-kimyoviy xossalari, donni qayta-ishlash jarayoni, un chiqish miqdori, non yopish texnologiyasiga ham bog'liq bo'ladi. Tuproq oziqa elementlar bilan yaxshi ta'minlangan bo'lsa, don hosili ham, o'z navbatida sifat darajasi ham yaxshilanishi mumkin [1; 52-136 b.], [2; 4-6.], [3; 104-106 b.].

Dolzarbligi shundaki, tadqiqotlarda o'rganilgan sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi va sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda qo'llanilgan chiqindilar, qoldiqlar va mineral o'g'itlar me'yorlarining kuzgi bug'doy don sifat ko'rsatkichlariga ta'siri aniqlangan va eng maqbul o'g'it fonida don sifati yaxshilangan.

### MATERIALLAR VA USULLAR.

Paxta selektsiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" qo'llanmasi (2007) [4, -147 b.] va tuproq va o'simliklar kimyoviy tahlili «Методы агрохимических анализов почв и растений Средней Азии» qo'llanmasi (1977) asosida tahlil qilindi [5, 12-18 b.]. Kuzgi bug'doy donining texnologik sifat belgilarini aniqlash "Don mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasida qo'llaniladigan xom ashyo va materiallar (2003) [6, 28 b.] asosida o'rganildi.

### NATIJALAR VA MUNOZARA.

Kuzgi bug'doy don hosilining massasi oziqa elementlar miqdoriga qay darajada bog'liq bo'lsa bu o'z navbatida don, un va unidan tayyorlangan non sifatiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Sababi kuzgi bug'doyning tuproq-iqlim sharoitlari moslashib, tuproqda zarur bo'lgan oziqa elementlar miqdorini oladi. Ko'pgina tajribalarda ma'lumki, o'g'itlar ham don sifatiga ayniqsa oqsil, kleykovinani ko'paytiradi. Don tarkibidagi kleykovina miqdorini oziqa elementlar miqdori ta'sirida o'zgaradi. Laboratoriya sharoitida kuzgi bug'doy "Vassa" navini don sifati laboratoriyada tahlil qilingan. Turli o'g'it fonida donning sifat ko'rsatkichlari o'zgarib borganligi aniqlangan (1-jadval va 1-rasm).

Birinchi (N-0 P-0 K-0 kg/ga) variant, sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir o'tloqi tuproqlarda don hosili 12,65 s/ga bo'lganda, don namligi 11,5 % ni, don yaltiroqligi 52,4 % ni, oqsil miqdori 9,55 % ni, kraxmal miqdori 72,4 % ni, kleykovina miqdori

## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

15,1 % ni, guruhi III ni, un chiqishi 54,6 % ni, don hajmi 546 g/l ni, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda don hosili 12,85 s/ga bo'lganda, don namligi 12,5 % ni, don yaltiroqligi 53,0 % ni, oqsil miqdori 9,70 % ni, kraxmal miqdori 71,5 % ni, kleykovina miqdori 15,3 % ni, guruhi III ni, un chiqishi 56,8 % ni, don hajmi 590 g/l ni tashkil qilgan. Ikkinchi (2 t/ga go'nglar +N-220 P-160 K-50 kg/ga) variant, sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir o'tloqi tuproqlarda don hosili 56,66 s/ga bo'lganda, don namligi 11,9 % ni, don yaltiroqligi 59,1 % ni, oqsil miqdori 11,80 % ni, kraxmal miqdori 66,6 % ni, kleykovina miqdori 20,8 % ni, guruhi II ni, un chiqishi 64,3 % ni, don hajmi 622 g/l ni, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda don hosili 58,70 s/ga bo'lganda, don namligi 12,0 % ni, don yaltiroqligi 60,3 % ni, oqsil miqdori 12,15 % ni, kraxmal miqdori 62,3 % ni, kleykovina miqdori 21,5 % ni, guruhi II ni, un chiqishi 72,8 % ni, don hajmi 638 g/l ni tashkil qilgan.

*1-jadval*

### Bug'doy donining sifat ko'rsatkichlari

| №                                                       | O'g'itlarning yillik me'yori, kg/ga                  | Don hosil-dorligi, s/ga | Don hosil-dorligi, s/ga | Don yaltiroqligi, % | Oqsil miqdori, % | Kraxmal miqdori, % | Kleykovina miqdori, % | Kleykovina guruhi | Un chiqishi, % | Don hajmi, g/l |
|---------------------------------------------------------|------------------------------------------------------|-------------------------|-------------------------|---------------------|------------------|--------------------|-----------------------|-------------------|----------------|----------------|
| <b>Sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi tuproq</b> |                                                      |                         |                         |                     |                  |                    |                       |                   |                |                |
| 1                                                       | N-0 P-0 K-0                                          | 12,65                   | 11,5                    | 52,4                | 9,55             | 72,4               | 15,1                  | III               | 54,6           | 546            |
| 2                                                       | 2 tonna/ga go'nglar + N-220 P-160 K-50               | 56,66                   | 11,9                    | 59,1                | 11,80            | 66,6               | 20,8                  | II                | 64,3           | 622            |
| 3                                                       | 7 tonna/ga go'nglar + N-154 P-112 K-35               | 62,33                   | 13,0                    | 70,6                | 13,10            | 65,9               | 29,9                  | I                 | 79,5           | 743            |
| 4                                                       | 10 tonna/ga chiqindi va qoldiqlar + N-154 P-112 K-35 | 64,68                   | 13,2                    | 75,5                | 13,85            | 65,7               | 30,8                  | I                 | 82,5           | 755            |
| 5                                                       | 15 tonna/ga chiqindi va qoldiqlar                    | 58,56                   | 13,8                    | 64,8                | 12,05            | 65,1               | 26,6                  | II                | 72,0           | 715            |
| <b>Sug'oriladigan o'tloqi tuproq</b>                    |                                                      |                         |                         |                     |                  |                    |                       |                   |                |                |
| 1                                                       | N-0 P-0 K-0                                          | 12,85                   | 12,5                    | 53,0                | 9,70             | 71,5               | 15,3                  | III               | 56,8           | 590            |
| 2                                                       | 2 tonna/ga go'nglar + N-220 P-160 K-50               | 58,70                   | 12,0                    | 60,3                | 12,15            | 62,3               | 21,5                  | II                | 72,8           | 638            |
| 3                                                       | 7 tonna/ga go'nglar + N-154 P-112 K-35               | 65,53                   | 14,5                    | 77,5                | 14,99            | 64,1               | 30,5                  | I                 | 81,0           | 750            |
| 4                                                       | 10 tonna/ga chiqindi va qoldiqlar + N-154 P-112 K-35 | 67,27                   | 14,8                    | 82,8                | 15,65            | 64,6               | 32,0                  | I                 | 85,4           | 754            |
| 5                                                       | 15 tonna/ga chiqindi va qoldiqlar                    | 60,40                   | 13,5                    | 68,1                | 14,30            | 63,7               | 27,8                  | II                | 80,9           | 728            |

## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Uchinchi (7 t/ga chiqindi va qoldiqlar +N-154 P-112 K-35 kg/ga) variant, sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir o'tloqi tuproqlarda don hosili 62,33 s/ga bo'lganda don namligi 13,0 % ni, don yaltiroqligi 70,6 % ni, oqsil miqdori 13,10 % ni, kraxmal miqdori 65,9 % ni, kleykovina miqdori 29,9 % ni, guruhi I ni, un chiqishi 79,5 % ni, don hajmi 743 g/l ni, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda don hosili 65,53 s/ga bo'lganda, don namligi 14,5 % ni, don yaltiroqligi 77,5 % ni, oqsil miqdori 14,99 % ni, kraxmal miqdori 64,1 % ni, kleykovina miqdori 30,5 % ni, guruhi I ni, un chiqishi 81,0 % ni, don hajmi 750 g/l ni tashkil qilgan.

To'rtinchi (10 t/ga chiqindi va qoldiqlar +N-154 P-112 K-35 kg/ga) variant, sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir o'tloqi tuproqlarda don hosili 64,68 s/ga bo'lganda, don namligi 13,2 % ni, don yaltiroqligi 75,5 % ni, oqsil miqdori 13,85 % ni, kraxmal miqdori 65,7 % ni, kleykovina miqdori 30,8 % ni, guruhi I ni, un chiqishi 82,5 % ni, don hajmi 755 g/l ni, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda don hosili 67,27 s/ga bo'lganda, don namligi 14,8 % ni, don yaltiroqligi 82,8 % ni, oqsil miqdori 15,65 % ni, kraxmal miqdori 64,6 % ni, kleykovina miqdori 32,0 % ni, guruhi I ni, un chiqishi 85,4 % ni, don hajmi 754 g/l ni tashkil qilgan.

Beshinchi (15 t/ga chiqindi va qoldiqlar) variant, sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir o'tloqi tuproqlarda don hosili 58,56 s/ga bo'lganda, don namligi 13,8 % ni, don yaltiroqligi 64,8 % ni, oqsil miqdori 12,05 % ni, kraxmal miqdori 65,1 % ni, kleykovina miqdori 26,6 % ni, guruhi II ni, un chiqishi 72,0 % ni, don hajmi 715 g/l ni, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda don hosili 60,40 s/ga bo'lganda, don namligi 13,5 % ni, don yaltiroqligi 68,1 % ni, oqsil miqdori 14,30 % ni, kraxmal miqdori 63,7 % ni, kleykovina miqdori 27,8 % ni, guruhi II ni, un chiqishi 80,9 % ni, don hajmi 728 g/l ni tashkil qilgan.

### XULOSA VA TAKLIFLAR.

Bug'doy donning sifati, uni kimyoviy tarkibiga oziqa elementlar miqdoriga ham bog'liq. Oziqa elementlar miqdoriga bog'liq holda bug'doy donining kimyoviy tarkibi o'zgarib borgan. Olingan natijalar bo'yicha don hosildorligi va sifat ko'rsatkichlar ma'lumotlari nazorat variant bilan o'zaro solishtirilganda eng yaxshi natijalar, to'rtinchi (10 t/ga chiqindi va qoldiqlar +N-154 P-112 K-35 kg/ga) o'g'it fonida har ikkala o'rganilgan tuproqlar sharoitida ham yuqori ko'rsatkichlarni ko'rish mumkin. Ayniqsa sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda yetishtirilgan kuzgi bug'doy donning sifat ko'rsatkichlari yuqoriligi aniqlangan.

### ADABIYOTLAR

1. Yormatova D. O'zbekiston doni. Toshkent. 2013. 52-136 b.
2. Bo'riev H, Jo'raev R, Alimov O va boshqalar. Don mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash. –T, 1997. 4 b.
3. Atoev B.Q., Sattarov J.S. Kuzgi bug'doy donining sifatini o'simlik navi va o'g'itga bog'liq ravishda o'zgarishi//O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining ma'ruzalari jurnali. –T, 2009 № 3, 104-106 b.



---

## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

---

4. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. -T, O'zPITI, 2007.-147 b.
5. Методы агрохимических анализов почв и растений Средний Азии Издание 5-е -Тошкент. 1977. 12-18.
6. Ayxodjaeva N.K., Rustambekova R.T., Usmanova B.A. Don mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasida qo'llaniladigan xom ashyo va materiallar. Uslubiy qo'llanma. -T.: O'qituvchi, 2003. -3-28 b.